

## **Bog‘lovchilarning funksional-stilistik xususiyatlari**

**Usmonov Aslam,**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat  
pedagogika instituti o‘qituvchisi,

[aslamusmonov9@gmail.com](mailto:aslamusmonov9@gmail.com)

+998933087171

**Usmonova Umida,**

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat  
pedagogika instituti o‘qituvchisi,

[usmonova2104@gmail.com](mailto:usmonova2104@gmail.com)

+998900252104

Ilmiy adabiyotlarda “yordamchi so‘zlar” termini ostiga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama birlashtiriladi. Bulardan ko‘makchini leksemashakl tarkibiga kiradigan morfema deb, noparadigmatik morfemalar majmui deb baholadik. Demak, grammatik birlik turkumlari deganda avvalo bog‘lovchi va yuklama nazarda tutiladi[1:122]. Bog‘lovchi – gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumining biri. Bog‘lovchi so‘zlar orasidagi, gaplar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlaydi va ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Mas., *kitob* so‘zining lug‘aviy ma’nosi ustiga ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot ma’nosi qavatlangan bo‘ladi. *Hamda* so‘zida “gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash” uning mohiyatini tashkil etadi.

Bog‘lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko‘ra teng bog‘lovchilar va ergash bog‘lovchilar deb ikkiga guruhlanadi. Hozirgi o‘zbek adadiy tiliga oid barcha darsliklarda bog‘lovchilar gapdagi vazifasiga ko‘ra ikki turga ajralib tasnif qilinadi: 1) teng bog‘lovchilar, 2) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.[4:359, 5:148, 6:425, 7:382.]

Teng bog‘lovchilar sodda gaplar tarkibidagi (shuningdek qo‘shma gaplar tarkibidagi) qismlarni o‘zaro teng bog‘laydi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

1. Biriktiruv bog‘lovchilari: *va, hamda.*

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq*.

3. Ayiruv bog'lovchilari: *yo, yoki; goh ..., goh ...; dam..., dam..* kabi.

Bog'lovchining adabiyotlarda tabiatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1) sof bog'lovchi; 2) vazifadosh bog'lovchi.[8:36] Bog'lovchilarning bunday bo'linishi ayrim adabiyotlarda bog'lovchilarning kelib chiqishiga ko'ra turlari shaklida beriladi. Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadosh turlarga bo'linadi. Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq* kabi. Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi bog'lovchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi. Masalan: Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko'rgani bordik ham (bog'lovchi) tarixiy obidalarni tomosha qildik.[ 8:36, 12:91]

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, faqat bog'lovchiga xos vazifa bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar deyiladi. Ularga: *va, lekin, ammo, yo, goh..., goh...* shu kabi bog'lovchilar kiradi. Vazifadosh bog'lovchilar deyilganda kelib chiqishi boshqa so'z turkumiga oid so'z *lekin* ba'zi o'rinlarda bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlar tushuniladi. Masalan: *bilan ko'makchi; -u (-yu), -da, na..., na..., ham yuklamalari; balki modal so'zi va shu kabilar.* Vazifadosh bog'lovchilarning funksional-stilistik xususiyatlari o'ziga xosdir. Ko'p xollarda stilistik ma'no faqat uslubiy xoslangan so'zlarda borday, aslida bunday emas.

Stilistik ma'no faqat uslubiy xoslangan so'zlardagina emas, balki tildagi barcha so'zlarda mavjud bo'ladi. Ayrim so'zlarda potensial ravishda bor bo'lgan ushbu ma'no kontekstda, so'zning o'zaro aloqasi natijasida namoyon bo'ladi.[9.11]

*bilan* o'zining asosiy ko'makchilik vazifasidan tashqari, biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida ham qo'llanishi mumkin. [6:427, 10:505] Mas: Oyim *bilan* dadam o'rtasida bo'lib o'tgan janjal ta'sir etdi chamasi, buning hammasini yana bir esladim. *bilan* yordamchisi sof biriktiruv bog'lovchi hisoblangan *va, hamda* bog'lovchilarinig birgalik hamda tenglik ma'nolarini ifodalaganda biriktiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi. Mas: 1. Eshikdan kiraverishdagi divanga o'tirib non bilan kolbasani tushirayotgan Kuloyans og'zidagini yuta turib g'alati jilmayib

qo‘ydi.[13:10] 2. To‘lagan bilan Kuloyans baravar stullarini surib, yaqinroq o‘tirishdi.[13:13] *bilan* yordamchisi mazkur misollarning birinchisida birgalik, ikkinchi misolda esa tenglik ma`nosida kelmoqda. Shu sababdan *bilan* ko`makchisi va, *hamda* bog‘lovchilariga sinonim bo‘lib vazifadosh bog‘lovchi vazifasini bajarib kelgan.

– na..., na... yuklamasi: *na otam bor, na onam bor.*

na...na... yordamchisining yuklama ekanligi R.Rasulovning O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning semantik-grammatik xususiyatlari asarida o‘z isbotini topganligi takidlangan.[11:186] Hozirgi adabiy o‘zbek tili (R. Sayfullayeva va boshqalar, Fan-texnologiya. -T.: 2010.-404) darsligida bu yordamchi so‘z bog‘lovchi-yuklama deb yuritilgan. Mualliflarning fikricha, ham... ham biriktiruv bog‘lovchisi ta’kid qo‘shimcha ma’no bo‘yog‘iga ega, na..., na... esa inkor ma’nosini ifodalaydi, -mi so‘roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog‘lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog‘lovchi-yuklama hisoblanadi. [2:393] na...na... yordamchisi qo‘llangan gapning kesimi inkor shaklda bo‘lsa yuklama, agar na..., na..., yordamchisi qo‘llangan gapning kesimi tasdiq shaklda bo‘lsa u holda bu so‘z vazifadosh bog‘lovchi hisoblanadi. Masalan: *Lekin u mahallar, oltmishinchi yillarning boshlarida uydirma shior atrofida qancha shov-shuvlar, qancha dabdabalar bo‘lgan, bu haqda yozmagan na birorta gazeta, na radio, na televidenie qolgandi. .[13:14] “Menda na yigitlik izzat-nafsi, na g‘urur, na iroda qoldi” — deb o‘yladim ichimda.[13:22] Biz nimagadir bu xilvat joylarda to‘xtamas, to‘xtashni na u, na men taklif qilardik. [13:22]*

Keltirilgan misollarda *na...na...* yordamchisi yuklama yoki vazifadosh bog‘lovchi ekanligi gaplarning kesimi tasdiq yoki inkor shaklda ekanligiga bog‘liqdir. Shu kabi xususiyatlar ham *na...na...* yordamchisining funksional xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

– balki modal so‘zi ham vazifadosh bog‘lovchi vazifasida kelishi mumkin. Maslan: *Bu gaplar qulog‘imga kirmas, balki battar g‘ashimga tegar edi.*

Balki so‘zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama-qarshilik ma’nosini ta’kidlash uchun qo‘llanadi.[2:392, 10:505]

Balki soʻzi koʻpincha zidlov bogʻlovchisi vazifasida qoʻllanadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida ham balki soʻzi zid maʼnoli gaplarni, gap boʻlaklarini bir-biriga bogʻlash, qiyoslash uchun xizmat qiluvchi soʻz, hamda gumon, taxmin maʼnolarini bildirgan modal soʻz sifatida izohlangan. Koʻp adabiyotlarda modal soʻzlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gapning oʻrtasida kelsa, har ikki tomondan, gap oxirida kelganda undan oldin vergul quyilishi aytiladi.

Modal soʻzlar gap boshida kelganda, undan soʻng, gap oʻrtasida har ikki tomondan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul bilan ajratib yoziladi. [14:191, 12:130,] Biz kuzatishlarimiz davomida balki soʻzini har ikkala tomonidan vergul qoʻyilgan holatni uchratmadik. Aksariyat holda balki soʻzidan oldin vergul qoʻyilgan bunday halat bu soʻzini gapning oʻrtasida kelganda koʻproq vazifadosh bogʻlovchi boʻlib kelishidan dalolat beradi. Chunki ammo, lekin, biroq, bogʻlovchilari gapda qoʻlanganda odatda bu bogʻlovchilardan oldin vergul qoʻyiladi. Masalan: *Mening familiyam roʻyxatning oʻrtasida, balki undan ham oldinroqda boʻlishi kerak edi.* [13:26]

Taʼkid yuklamasi (-ku, -da, -u, -yu) gapda ifodalangan biror voqeani taʼkidlash uchun qoʻllaniladi: *Sobir-ku keldi.* Takid yuklamasi hisoblangan –u, -yu qoʻshimcha shaklidagi yuklama faqat takid maʼnosini ifodalashdan tashqari bogʻlovchi vazifasida ham keladi. –ku bogʻlovchi vazifasini bajarganda zidlov bogʻlovchisiga koʻchgan –u, -yu yuklamalari bilan ham sinonimlik hosil qiladi.

Shuningdek, -u (yu), -da, ham, -a yuklamasi, baʼzan ravishi ham bogʻlovchi vazifasida kelishi mumkin. Ayrim soʻzning bogʻlovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bogʻlovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yoʻq.[2.205] Bogʻlovchi-yuklama, koʻmakchi-bogʻlovchi, koʻmakchi-yuklama kabilar – til tizimida yordamchi soʻz turkumiga xos boʻlgan «oraliq uchinchi». [2.206]

Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida –u, -yu yuklamasi vazifadosh bogʻlovchi sifatida qoʻllanilishiga doir baʼzi muloxazalarni keltiramiz. Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida jami 46 marta –yu yuklamasi qoʻllangan boʻlib, shundan 3 oʻrinda soʻzlarga kuchaytiruv-taʼkid maʼnosini ifodalashga

xizmat qilgan yuklama vazifasida kelgan. Masalan: *Ammo-lekin bunaqa odatingiz yo'q edi-yu, o'rtoq akademik! Tinchlikmi o'zi?[13:13] Yasan-tusanlar joyida-yu, kimni kutib turibsan, o'g'lim, — deb so'radi. [13:20]*

Qissada –yu faqat kuchaytiruv-takid ma'nosini ifodalab qolmasdan, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasidagi biriktiruv, zidlov munosabatlarni ifodalaydi va qanday ma'no-munosabatni bildirsa shu nomdagi vazifadosh bog'lovchi vazifasini bajarib keladi. -u (-yu), -da yuklamalari biriktiruv bog'lovchilariga sinonim bo'la oladi. Bu vaqtda qiyoslash, zidlik, tenglik, sabab, natija kabi ma'nolar anglashiladi: Mashina xo'p yaxshi narsa-yu, o'ziga yarasha uning ham nag'malari bor-da[15:205].

Qissada –yu yuklamasi 43 ta qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'lab kelgan bo'lib, ushbu qo'shma gaplarning 38 tasi biriktiruv mazmun-munosabatni (Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarning qisimlari biriktiruv bog'lovchilar hamda ba'zi yuklamalar yordamida bog'lanishi mumkin. Bunday gaplarda -u,-yu biriktiruv bog'lovchisi vazifasini bajarib keladi.) ifodalagan bo'lsa, faqat 5 ta qo'shma gapda zidlov munosabatni ifodalab kelgan.

Odil Yoqubovning “Muqaddas” qissasida –yu vazifadosh bog'lovchisi orqali biriktiruv munosabati ifodalangan qo'shma gaplar quyidagilar: *Bir daqiqaga ularning hammasi ko'zimga mehnatdan qochib yurgan erkatoylarga o'xshab ko'rindi-yu, g'azabim qo'zg'adi.[13:5] Qani endi shunday paytda Muqaddas «xo'p» desa-yu, birorta sersoya saylgohga kirib dam olsak, yo birga dars tayyorlasak! [13:8] Birdan nima ham bo'ldi-yu, ko'zim ikkinchi qavatning tepasiga tushdi. [13:8] Asta-sekin undagi bu sababsiz shodlik menga ham o'tdi-yu, ko'nghimdagi g'ashlikni tarqatib yubordi. [13:25] Ko'zim shu yozuvga tushdi-yu, yig'lab turganga o'xshagan bu qop-qora novcha odam yuragimga yaqin, mehribon, go'yo mard va dovyurak bir kishiga aylandi, go'yo shu yozuvlar to'satdan yarq etib nur sochdi-yu, bu nur pilotka kiygan notanish odamning qalbini, ichki dunyosini, ruhini yoritib yuborgandek bo'ldi. [13:33]*

Qissada qo'llangan qo'shma gaplar tarkibida –yu yuklamasi zidlash-qiyoslash munosabatini ifodalab zidlov bog'lovchisi vazifasini ham bajarib kelgan.

Qiyoslash (zidlash) mazmunidagi qo'shma gap mazmuni asosan *bo'lsa, esa* fe'llari, shuningdek yuklamalar oqali ifodalanadi.[3:337]

Qissada zidlov mazmunidagi qo'shma gaplar quyidagilar: *O'rtoqlarimni ko'chada kutsam ham bo'lardi-yu, sexni, stanogimni bir ko'rib ketish niyatida ichkariga kirdim. [13:29] Brigadamiz ilg'or mehnat brigadasi, degan nom olmoqchi-yu, sen bo'lsang laqillab yuribsan.Qoyilman sendaqa akademikka! [13:29]O'zi domlaga gap uqtirar edi-yu, ko'zlari Muqaddasda edi. [13:19] Birdan ko'nnglim g'ash bo'ldi-yu, dastgohimni ko'rib chiqaman, degan bahona bilan tezroq sexga qarab ketdim. [13:25] Asta-sekin kishi bunga o'rganib ketadi-yu, hamma narsa oddiy va tabiiy bo'lib qoladi.*

Yuqoridagi tahlillardan ham ko`rinib turibduki, –yu yordamchisi bog'lovchi vazifasida juda ko'p o`rinlarda qo`llaniladi.

O'zbek tili bog'lovchisining ma'no va xususiyati tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchi bilan bog'liq masalalarni ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh vazifalardan biri sanaladi. [2.205]

Xulosa qilib aytganda, *bilan*, *na.., na.., –u, –yu* yordamchilari hamda *balki* modal so'zi turli xil ma'noda qo'llana olishi va bog'lovchisi vazifasida qo'llanishi uning o`ziga xos funksional-stilistik xususiyatga ega ekanligini belgilaydi. Gaplarda qo'llanadigan bu kabi vazifadosh bog'lovchisini o'rganish til birliklarining o'z xususiyatlarini oydinlashtirib boradi.

#### **Adabiyotlat ro'yxati:**

1. Rahmatullayev Sh., Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent "Universitet" 2006-yil
2. Sayfullayeva R. va boshqalar, Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. 2010-yil
3. Абдурахмонов Ф., Шоабдурахмонов Ш., Хожев А. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: 1976 –337 б.
4. Хозирги ўзбек адабий тили, II томлик, I том.-Т.: 1966 йил. –360-бет
5. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1978. – 356 б.

6. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм.- Т.: Ўқитувчи, 1980. – 448 б.
7. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси.- Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
8. Mengliyev B.R va boshqalar... Ona tili. Qomus.-Toshkent. 2009-yil, 111-bet.
9. Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat / ilmiy risola/ -Tosh: Nodirabigim, 2020.-120 b.
10. Камол таҳрири остида. Ҳозирги замон о`збек тили. 1957-йил
11. Пардаев А. Ўзбек тилида ёрдамчи сўз туркумларнинг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили.-Т.:Фан , 2013.-264
12. Mahmudov N. va boshqalar: Ona tili: Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –Т.: Manaviyat, 2005. -128 b.
13. Abdurahmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova L. O`zbek tilining amaliy grammatikasi.-Т.: O`qituvchi , 1992,-257 bet.
14. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси.- Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.